

## O'ZBEKISTONNING GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA TO'RTINCHI SANOAT INQILOBIGA KIRISHDAGI TO'SIQLARI VA KAMCHILIKLARI

Safarov Sanjarbek

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Internet:[https://t.me/benazir\\_muhammadamin](https://t.me/benazir_muhammadamin)

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonning hozirgi beqarorlik sharoitlarida sanoatning 4.0 bosqichiga kirish strategiyalari, bu yo'ldagi kamchiliklar va imkoniyatlari, bunga to'sqinlik qilayotgan sabablar haqida aytildi

**Kalit so'zlar:** sanoat inqiloblari, sanoat 4.0, O'zbekiston, Xitoy, sun'iy intellekt, robototexnika, globalizatsiya, AQSh

I, II, III- sanoat inqiloblari haqida bilamizki, ular ma'lum davrlarda ma'lum bir texnologik va boshqa yutuqlarni iste'molga olib kirgan. Va shuni ham unutmaslik kerakki, uchala sanoat inqilobi o'z o'rnni IV sanoat inqilobiga bo'shatishi zarur, negaki mamlakatlar rivojlanish tendensiyasi shuni taqozo etadi. Shunday ekan savol paydo bo'ladi? IV - sanoat inqilobi nima? uning yutuqlarichi? O'zbekistonning Global beqarorlik sharoitida bu inqilobga kirish strategiyasi qanaqa? Va aslida kira oladimi?

Keling, avvalo, IV sanoat inqilobi atamasiga izoh beramiz.

**To'rtinchi sanoat inqilobi** (sanoat 4.0 ham deb nomlanadi) zamonaviy intellektual texnologiyalardan foydalangan holda an'anaviy ishlab chiqarish moslamalarini tez sur'atda avtomatlashtirishni anglatadi. Bu Olimlarning fikricha, bu sanoat inqilobi ham oldingi sanoat inqiloblari singari, daromad darajasini oshirishi va butun dunyo bo'ylab hayot sifatini yaxshilashi mumkin. Misol uchun, Taksiga buyurtma berish, reyslarni oldindan bron qilish, oziq – ovqat sotib olishning raqamli jihatlari ya'ni bozorga bormasdan shunchaki tanlab buyurtma qilish, film, konsert, har xil ko'ngil ochar tadbirlar uchun pul to'lash-bularning barchasi endi masofadan turib amalga oshirilishi mumkin.



Manba: [www.aza.uz](http://www.aza.uz)

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, To'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari Sun'iy intellekt iqtisodiyot, jamiyat va mehnat bozorini tubdan o'zgartirishning asosiy texnologiyalaridan biri bo'lishi kerak. Bu Sanoatning boshqa jihatlarini ham qo'shish mumkin:

#### Internet

Jismoniy va raqamli dunyo o'rtaсидаги aloqani o'rnatish uchun mo'ljallangan IOT texnologiyasi ko'plab sohalarda inqilob qildi. Darhaqiqat, milliardlab qurilmalar allaqachon bir-biriga bog'langan va tobora qurilmalar smart' lashib bormoqda. Albatta, bunda internetning roli kattadir.

#### RFID(Radio Frequency Identification)<sup>1</sup>

RFID yordamida Real vaqt rejimida tovarlarning ko'rinishi, mahsulot xususiyatlari haqida ma'lumot olish hamda ularni tanlash imkoniyati bo'ladi.

#### Robototexnika

Robototexnika doimiy ravishda rivojlanib bormoqda va odamlar bilan aloqada bo'lish uchun maxsus ishlab chiqilgan robotlar sanoat uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Boshqa narsalar qatori, ular sanoatni optimallashtiradi va ishchilarni monoton va xavfli vazifalarni bajarishdan xalos qiladi.

#### Virtual reallik

Virtual reallik-bu haqiqiy dunyoni raqamli bilan birlashtiradigan texnologiyalar. Sizni to'g'ridan-to'g'ri haqiqiydek tuyuladigan tasvirlar, tovushlar va boshqa xususiyatlar bilan aslida yo'q bo'lgan "olam"ga olib boruvchi texnologiya.

<sup>1</sup> [https://www.fda.gov/radiation-emitting-products/electromagnetic-compatibility-emc/radio-frequency-identification-  
rfid](https://www.fda.gov/radiation-emitting-products/electromagnetic-compatibility-emc/radio-frequency-identification-rfid)

### 3D va 4D printing<sup>1</sup>

Bugungi kunda bizda 3D va 4D bosib chiqarish orqali tez, aniq va tejamkor prototiplarni yoki sotiladigan mahsulotlarni ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ldik.Ushbu texnologiya dizayn, arxitektura, muhandislik va boshqa sohalarda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

IV sanoat inqilobi muhimligi va xususiyatlari haqida ko‘rib chiqdik, endi esa O‘zbekiston Respublikasining bu Global beqarorlik sharoitida Sanoat inqilobiga qo‘shilish strategiyasi haqida gaplashadigan bo‘lsak,avvalo O ‘zbekiston Respublikasining IV sanoat inqilobiga kirishiga to‘sqinlik qiladigan ba’zi ichki sabablar bor, unga quyidagilar kiradi:

- Iqtisodiyot past darajada raqamlashtirilgan;
- Raqamlashtirilgan iqtisodiyotning foydalari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi;
- Raqamashtirish va avtomatlashtirish bo‘yicha ichki kelishmovchiliklar;
- malakali kadrlar yetishmasligi;
- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- innovatsion yangiliklar, texnologiyalar, tadqiqotlar o‘tkazish uchun korxonalar va davlatning kam mablag‘ ajatishi.

IV sanoat inqilobini tezlashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Sanoat rivojlanishi uchun sifatli internetni joriy qilish;
- unga korxonalarning yuqori internet tezligida kirishiga imkoniyat yaratib berish;
- “Sanoat 4.0” konsepsiyasiga mos inson kapitali va texnologiyalarini yaratish;
- raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun moliyaviy bazani shakllantirish va uni muntazam qo‘llab quvvatlash.

Shunday qilib, hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida aytilgan hamma faktlar va yechimlar mavjud emas,biroq IV sanoat inqilobiga sharoit yaratishga harakatlar yo‘q emas, shunday ekan asta-sekinlik bilan keyingi 10 yillar ichida sanoat inqilobiga to‘liq kirishiga ishonamiz.

O‘zbekiston Respublikasining IV sanoat inqilobiga kirishiga g‘ov bo‘layotgan ichki faktorlardan boshqa tashqi faktorlar ya’ni global beqarorliklar, manfaatlar o‘zgarishi kabi sabablar ham mavjud.

Bulardan, eng muhimi Xitoyning Markaziy Osiyo ga toboro yaqinlashib kelayotganligi va bunda O‘zbekiston Respublikasini ham o‘zining sanoat inqilibi tendensiyadining obyektiga aylantirish xavfi mavjud deb bilamiz.Chunki, sanoat

<sup>1</sup> [https://www.researchgate.net/figure/Characteristic-differences-between-3D-and-4D-printing-technologies-Adapted-from-12\\_tbl1\\_347489448](https://www.researchgate.net/figure/Characteristic-differences-between-3D-and-4D-printing-technologies-Adapted-from-12_tbl1_347489448)

inqilobi bayrog‘ini egallahsga harakat yo‘nalishida Xitoy AQSh bilan birga ketyapdi desak xato bo‘lmaydi. AQShning boshqa materikda joylashganini hisobga olsak, O‘zbekistonga nisbatan tahdidi kamroq, biroq Xitoyniki kundan-kunga ortib bormoqda, sababi 5G texnologiyasi, robototexnika, sanoat ishlab chiqarishning katta miqdordagi massivi Markaziy Osiyo davlatlariga, xususan O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va asosan Qozog‘istonga qaratilmoqda. Dunyo asta-sekin Globalizatsiyadan yuz o‘girayotgan davrda, Xitoy o‘z lokalligini saqlashga harakat qilib kelmoqda. Bundan shuni tushunish mumkinki, O‘zbekiston bu sanoat inqilobi davrida nafaqat global, balki regional ta’sirlarga ham duch kelishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi IV sanoat inqilobiga o‘tishi uchun yetarlicha sharoitlar to‘liq yaratilgani yo‘q, bunga bizning an’analarga sodiq qolayotganligimiz va dunyo qarashimizning sekin o‘zgarishini sabab qilib ko‘rsatsak bo‘ladi. Va yana shuni, ta’kidlash zarurki, Global beqarorlikdan ko‘ra bu tendensiyada O‘zbekistonning ichki kamchiliklari nisbatan xavfliroq deb o‘ylaymiz, negaki ichki ildizimiz mustahkam va birlashgan bo‘lsa, hech qanaqa tashqi ta’sir bizga xavf tug‘dira olmaydi. Afsuski, buni Ajodolarimiz ham amalga oshira olishmaganligini tarix ko‘rsatib turibdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. [https://www.researchgate.net/figure/Characteristic-differences-between-3D-and-4D-printing-technologies-Adapted-from-12\\_tbl1\\_347489448](https://www.researchgate.net/figure/Characteristic-differences-between-3D-and-4D-printing-technologies-Adapted-from-12_tbl1_347489448)
2. <https://www.spot.uz/oz/2021/03/24/industry-fourth/>
3. 4-SANOAT INQILOBI DAVRIDA INSON RESURSLARI MENEJMENTINING ROLI VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI  
<https://cyberleninka.ru/article/n/4-sanoat-inqilobi-davrida-inson-resurslari-menejmentining-roli ва uning-kelajakdag-i-istiqbollari>
4. Utz Schäffer, Jürgen Weber; “Controlling 4.0”; Schwerpunkt; 2016
5. R. Ashurov; “Endi savodsiz bo‘lishga haqqimiz yo‘q. To‘rtinchi sanoat inqilobi: Oyning qorong‘u tomoni”